

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 4 - dekabr

434-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani "Do'stlik" MFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-sentyabrdagi "Islom taraqqiyot banki va opek xalqaro taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida «Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5246-sonli qarori ijrosi yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUKning 2023-yil 20-iyuldagi 01/4-8/1224-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. To'rtko'l tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan "Do'stlik" MFY hududidan o'rta ta'lim maktab binosi qurilishi uchun 0,70 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUKga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK (I.Niyazov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritсин.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 4-dekabrda
434-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

To'rtko'l tumani "Do'stlik" MFY hududidan
o'rta ta'lim maktabi qurish uchun tanlanayotgan yer maydonining joylashgan o'rni
TARXI m-b1:1000



Yer uchastkasi haqida ma'lumot: Yer uchastkasi To'rtko'l tumani "Do'stlik" MFY hududida joylashgan bo'lib:
Shimo tomondan To'rtko'l tumani yo'lardan foydalanish unitar korxonasi.
Sharq tomondan kollektor bilan 6.5 metr
Janub tomondan To'rtko'l el rizq bozori MCHJ xududi bilan
G'arb tomondan turar joy xududi va bo'sh yer bilan chegaradosh
Koordinatalari:

- | | | | |
|-------------------|---------------|-------------------|---------------|
| 1) 41°32'22.20"C | 61° 1'31.81"B | 2) 41°32'21.13"C | 61° 1'36.97"B |
| 3) 41°32'20.42"C | 61° 1'36.65"B | 4) 41°32'19.26"C | 61° 1'36.01"B |
| 5) 41°32'19.57"C | 61° 1'34.79"B | 6) 41°32'19.62"C | 61° 1'34.80"B |
| 7) 41°32'19.85"C | 61° 1'33.72"B | 8) 41°32'19.94"C | 61° 1'33.74"B |
| 9) 41°32'19.99"C | 61° 1'33.58"B | 10) 41°32'19.91"C | 61° 1'33.52"B |
| 11) 41°32'20.14"C | 61° 1'32.49"B | 12) 41°32'20.26"C | 61° 1'32.53"B |
| 13) 41°32'20.30"C | 61° 1'32.36"B | 14) 41°32'20.18"C | 61° 1'32.31"B |
| 15) 41°32'20.43"C | 61° 1'31.13"B | 16) 41°32'20.87"C | 61° 1'31.19"B |
| 17) 41°32'20.84"C | 61° 1'31.63"B | | |

Tuman markazida joylashgan.
Yer uchastkasi maydoni (ga): 7000 kv.m 0.7 ga
Yer fondi: Tuman zaxira yerlari
Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: O'rta ta'lim maktabi imorati qurish uchun
Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan bo'sh yerler
Ball boniteti: Baxolanmagan